


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TAILIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



Samarqand iqtisodiyot va
servis instituti rektori

M.E. Po'latov

2024 yil "29" "08"

Ro'yxatga olindi: №BD-60310100
2024 yil "29" "08"

RAQAMLI IQTISODIYOT

FANING

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	300000	- Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot
Ta'lim sohasi:	310000	- Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar
Ta'lim yo'nalishlari:	60310100	- Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi DIGECO06	O'quv yili 2024-2025	Semestr 4	ECTS – Kreditlar 6
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 6
Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
1.	72	108	180

1. FANNING MAZMUNI

Jamiyat, davlat va shaxs hamda xo'jalik faoliyati sub'yektlarining shiddat bilan rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyot jarayonlaridagi faoliyatlarini ta'minlash hamda rivojlantirish istiqbolini belgilash, turli tarmoq va sohalarining ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish, iqtisodiy va analitik-tahliliy xizmatlar, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat aylanishi, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko'rsatish uchun elektron tijorat tizimlarini, shuningdek, tarmoqlar va sohalar bo'yicha raqamli iqtisodiy faoliyatni raqamli iqtisodiyotning texnologiyalarini qo'llash orqali rivojlantirish, biznes va axborot xavfsizligini ta'minlash jarayonlarini tashkil etishda "Raqamli iqtisodiyot" fanini o'qitish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

"Raqamli iqtisodiyot" fani tarmoq va soha fanlari blokiga kiritilgan kurs hisoblanib, 2 va 3-kurslarda o'qitilishi maqsadga muvofiq. Fanni o'rganish jarayonida O'zbekiston Respublikasining qonunlaridan, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha hukumat qarorlari, me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan, shuningdek raqamli iqtisodiyot klassifikatoridan foydalanish lozim. Fanda eng muhim o'rinni raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid masalalar va bu borada amalga oshirilayotgan va oshirilishi lozim bo'lgan ish ko'lami, raqamli iqtisodiyotni korxona va tashkilotlarda faoliyat samaradorligi, moliyaviy natijalar va daromadlarga bog'liq masalalar egallaydi. "Raqamli iqtisodiyot" fani "Iqtisodiyot nazariyasi", "Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari", "Milliy va jahon iqtisodiyoti", "Marketing", "Menejment", "Innovatsion iqtisodiyot", "Raqamli marketing" va boshqa bir qator fanlar bilan uzviy bog'liq.

Ushbu fanda raqamli iqtisodiyotni qo'llagan holda har bir korxona va tashkilotlarda xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlarini hozirgi davr talablariga mos kelgan holda tahlil qilish va rejalashtirish va ularni iqtisodiy jihatdan asoslash masalalarini, kompyuter va elektron hisoblash mashinalaridan foydalanilgan holda zaruriy ko'nikmalarni amaliy darslarda olish ta'minlanadi. Amaliyot darslarda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari va boshqa muhim masalalar atroflicha o'rganiladi.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga raqamli iqtisodiyotning biznes va ijtimoiy sohadagi o'rni va ahamiyatini o'rgatish, biznes jarayonlarini raqamlashtirish, biznes modellari, elektron tijorat, blokcheyn texnologiyalarini qo'llash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Shuningdek, fan talabalar o'rtasida zamonaviy iqtisodiy fikrlashni rivojlantirish, ularning iqtisodiy tizim nuqtai nazaridan jamiyatning amaliy

sohalariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish oqibatlarini o'rganishdan iborat bo'lib, zamonaviy iqtisodiy muhitning yangi hususiyatlari, raqamli iqtisodiyot allaqachon amaliy faoliyatda hisobga olinishi kerak bo'lishini o'rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari:

- raqamli iqtisodiyot hamda uning tarkibiy qismi bo'lgan elektron tijorat sohasining iqtisodiy mohiyati, uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni, raqamli iqtisodiyotning hamda elektron tijoratning hozirgi davrda shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir qancha asosiy turlari, shu jumladan, bulutli texnologiyalar, moliyaviy texnologiyalar, buyumlar internet, sun'iy intellekt, raqamli valyutalar, virtual voqe'lik va ularning asosiy xususiyatlarini atroflicha bayon etish, shuningdek raqamli texnologiyalarni o'rgatish jarayonida elektron tijorat tashkil qilishning samarali zamonaviy usul va vositalari hamda mavjud platformalarini talabalarga tushunarli holda o'rgatishdan iborat.

- talabalarda mamlakat raqamli iqtisodiyot mohiyati va tarkibi va uni rivojlantirish bo'yicha qonunlar va qonuniyatlari; raqamli iqtisodiyot sharoitida faoliyat yuritayotgan korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi to'g'risida tasavvur hosil qilish;

- raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq muammolar va asosiy iqtisodiy talablarni shakllantira olish va taraqqiyot etgan davrlar tajribalarini qo'llash yo'llarini yoritish;
- raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish tendentsiyalarini o'rganish, shuningdek turli tarmoq va sohalarida raqamlashtirish jarayonini tashkil etish muammolarini va ularni mo'tadil yechimini aniqlashni; O'zbekiston Respublikasining raqamli iqtisodiyotga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosatining mohiyatini o'rgatish.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

1-mavzu. Raqamli iqtisodiyot faniga kirish va uning tarkibiy qismlari

Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va uning ahamiyati. Raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlari tavsifi. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salbiy tomonlari. Raqamli iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari. Raqamli iqtisodiyotning asosiy rivojlanish yo'nalishlari.

2-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda elektron biznes asoslari

Elektron biznesning mohiyati va rivojlanish xususiyatlari, internet tarmog'ida biznesni yaratilish xususiyatlari, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish xususiyatlari, huquqiy asoslari. jamiyatni rivojlantirishda axborotlashtirishning tutgan o'rni, ahamiyati, raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning mazmunini aniqlash.

3-mavzu. Raqamli (elektron tijorat) savdoni rivojlantirish xususiyatlari

Raqamli iqtisodiyotda savdoning transformatsiyasi. Elektron tijoratning turlari. Chakana savdoni tashkil etish bo'yicha (biznes-iste'molchi, B2C), biznes hamkor bilan aloqalar o'rnatish (biznes-biznes, B2B), iste'molchilar o'rtasidagi savdo (iste'molchi-iste'molchi, C2C). Elektron tijoratni rivojlantirishda korporativ sektor. Elektron biznes bozorining rivojlanish tendentsiyalari. Rivojlangan mamlakatlarda elektron biznesning holati tahlili. Red Hat, Amazon, Alibaba, Apple, Microsoft kabi

yetakchi kompaniyalarining savdoni raqamlashtirishdagi texnologiyalari. Onlayn savdo sharoitida bozordagi kontragentlar munosabatlardagi o'zgarishlar. Bulutli texnologiyalar va savdo. Chakana to'lovlarini raqamlashtirish. Mobil telefoniya. Elektron mahsulotlar va xizmatlarning yangi bozorlari. Onlayn va offlayn raqobat. Taqqoslash saytlari. Raqamli elektron marketingning tashkil qilinishi. Raqamli iqtisodiyotda narxlarini qo'yish. Elektron ma'lumotlar bozorlari. Axborot mahsulotining tabiati: axborot mahsuloti va axborot xizmati. Elektron pul va to'lov tizimlarining rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat va elektron biznesni rivojlantirish istiqbollari.

4-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda bulutli texnologiyalari (Cloud technologies) va

“Katta ma'lumotlar” (BigData) texnologiyasi

Bulutli texnologiyalar tushunchasi va ularning evolutsiya tarixi. Taqsimlangan hisoblash va bulutli texnologiyalarining soha va tarmoqlarning rivojlanishidagi mohiyati. Buyumlar texnologiyalar turlari va ulardan foydalanish yo'nalishlari. SAAS texnologiyalari. Yetakchi davlatlarda buyumli texnologiyalar taraqqiyoti va O'zbekistonda ularni rivojlantirish istiqbollari.

5-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari

Blokcheyn tushunchasi va uning evolutsiya tarixi. Blokcheyn texnologiyalarining soha va tarmoqlarning rivojlanishidagi mohiyati. Blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlari. Yetakchi davlatlarda blokcheyn texnologiyalarining taraqqiyoti va O'zbekistonda ularni rivojlantirish istiqbollari.

6-mavzu. Iqtisodiyotda kriptovalyuta texnologiyasi va mayning fermalarining ahamiyati

Kriptovalyutalar paydo bo'lishi va tarixi. Kriptovalyutani asosiy tushunchalari. Kriptovalyuta ishlash jarayoni va mayning fermalari. Kriptovalyutalar turlari va xususiyatlari. Iqtisodiyotda kriptovalyutalarni tutgan o'rni, uni qo'llash sohasi, paydo bo'lishi, kriptovalyutalar haqida tushinchaga ega bo'lishi va mayner fermalari.

7-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda mobil internet texnologiyalari

Raqamli iqtisodiyotda mobil texnologiyalar. O'zbekiston bozoriga mobil qurilmalarning kirib kelishi va rivojlanish bosqichlari. Mobil texnologiyalar va biznesning raqamli transformatsiyasi. Buyumlar interneti tushunchasi va uning evolutsiya bosqichlari. Raqamli iqtisodiyotda buyumlar internetining zaruriyati va mohiyati. Buyumlar internetining asosiy modellari. Raqamli iqtisodiyotda buyumlar internetining ishlatilish tartibi. M-M texnologiyalarining soha va tarmoqlarda qo'llanish mohiyati va iqtisodiyotni rivojlantirishda imkoniyatlari. Yetakchi davlatlarda buyumlar internetining taraqqiyoti va O'zbekistonda uni rivojlantirish istiqbollari.

8-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda neyroteknologiyalar va sun'iy intellekt

Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi. Neyroteknologiyalar va sun'iy intellektning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida intellektual kapital. Intellektual resurslarni nshakllantirish va foydalanish muammolari. Sun'iy intellekt tushunchasi va uning evolutsiya tarixi. Sun'iy intellekt texnologiyalarining soha va tarmoqlarning rivojlanishidagi mohiyati. Sun'iy texnologiyalaridan foydalanish

yo'nalishlari. Yetakchi davlatlarda sun'iy intellekt texnologiyalarining taraqqiyoti va O'zbekistonda ularni rivojlantirish istiqbollari.

9-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda buyumlar interneti va kognitiv texnologiyalar

Buyumlar internetining mohiyati va ishlatilishi. Buyumlar internetini iqtisodiy xususiyatlari. “Aqlli uy” texnologiyasi xususiyatlari. “Xavfsiz uy” texnologiyasi xususiyatlari. “Aqlli shahar” texnologiyasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. M2M texnologiyasi negizidagi buyumlar internet. Raqamli iqtisodiyotda kognitiv texnologiyalari. Kognitiv texnologiyalar tushunchasi va mohiyati. Dunyoni o'zgartiradigan kognitiv texnologiyalar. Raqamli biznesda kognitiv tizimlar va xizmatlar

10-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari

Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalar mohiyatini anglab etish va ulardan foydalanish. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarini rivojlantirish muammolari. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari jahon bozori xususiyatlari.

11-mavzu. Raqamli biznesda kraudsorsing va kraudfandingning yangi imkoniyatlari

Tovarlar va xizmatlar bozorining globallashuvi. Internetda ijtimoiy tarmoqlar. Birgalikda iste'mol (Sharing economy). Axborot texnologiyalari rivojlanishi natijasida an'anaviy biznes modellarning o'zgarishi. Kraudsorsing (Crowdsourcing) va Kraudfanding (Crowdfunding) tushunchalari va paydo bo'lish tarixi. Kraudsorsing va kraudfandingning biznesning rivojlanishidagi mohiyati. Elektron biznes va elektron tijoratni boshqarishning tashkiliy strukturasi. Shaxsiy elektron biznesni yaratish bosqichlari. Shaxsiy biznesni boshlash yo'lidagi faoliyat ketma-ketligi. Yangi mahsulot yoki xizmatlar uchun g'oyalarni izlash va ularni tanlash imkoniyatlari. Start-up loyihalari. Bozorni pozitsiyalash asoslari. Shaxsiy elektron biznesni rivojlantirish strategiyalari.

12-mavzu. Raqamli biznesda fikrlash dizayni

Raqamli iqtisodiyotda qishloq xo'jaligi transformatsiyasi zaruriyati. Smart Farming – “Aqlli” qishloq xo'jaligining asosiy innovatsion yechimlari. Precision Agriculture – Aniq dehqonchilik. Aniq dehqonchilik texnologiyasining iqtisodiy va ekologik jihatlari. Qishloq xo'jaligining asosiy turlari bo'yicha dehqonchilik, chorvachilik tarmoqlari) raqamli texnologiyalarining qo'llanilishi. Qishloq xo'jaligini raqamlashtirishning oziq-ovqat ta'minot zanjirining rivojlanishidagi tugan o'rni. Yetakchi davlatlarda “aqlli” qishloq xo'jaligining rivojlanishi va uning O'zbekiston Respublikasida rivojlanish istiqbollari.

13-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirish masalalari

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali tushunchasi, va ilmiy yondashuvlari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining xorij tajribasi. O'zbekistonda inson kapitalini taraqqiyoti va raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining turlari va komponentlari.

14-mavzu. O'zbekistonda elektron hukumat xususiyatlari

O'zbekistonda elektron hukumatni rivojlantirishning tashkiliy-huquqiy asoslari. Davlat organlari faoliyati samaradorligi, tezkorligi va shaffofligini ta'minlashda elektron hukumatning o'rni. Aholi va tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda elektron hujjat aylanishi. Raqamli iqtisodiyotda davlatning o'rni. "Elektron hukumat" tushunchasi. Elektron hukumatning vazifalari. Elektron hukumat tizimidagi munosabat shakllari. Elektron hukumat reytinglari. Raqamli demokratiya. Elektron hukumatdan raqamli davlatgaacha. Raqamli uy-joy xizmatlari. Raqamli tibbiyot xizmatlari. Raqamli ta'lim xizmatlarini tashkil etish. O'zbekistonda "Aqlli shahar konsepsiyasi"ning rivojlanishi. O'zbekistonda raqamli davlatning istiqbolari.

15-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi

Raqamli iqtisodiyot sharoitlarida O'zbekiston turizm bozorining rivojlanishi. Uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish tizimida raqamli o'zgarishlar. Transport xizmatlaridagi elektron tijorat. Elektron servis (xizmatlar) va uning turlari. Elektron servis bozorlari. Elektron xizmatlar sifatini boshqarish. Raqamli xizmatlar hususiyatlari. Korxona va tashkilotlarda elektron xizmatlar ko'rsatishning afzalligi va kamchiliklari. Elektron xizmatlar klassifikatsiyasi. Turizmni raqamlashtirishning mohiyati va O'zbekistonda raqamli turizmni rivojlantirish zaruriyati. Respublikada raqamli turizmning asosiy turlari va elektron turizm bozori. Elektron turizm xizmatlari bozorining raqamli transformatsiyasi. O'zbekistonda raqamli servis va raqamli turizmni rivojlantirishning istiqbolari.

16-mavzu. Raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish

Raqamli ta'lim bozorining rivojlanishi va ta'lim platformalarining turlari. Raqamli iqtisodiyotning ta'lim muhitini shakllantirish. Masofaviy ta'limni rivojlantirish yo'llari. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron ta'lim platformalardan foydalanish

17-mavzu. Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish.

"Sanoat-4.0" konsepsiyasi

"Sanoat-4.0" konsepsiyasining mohiyati va rivojlanishi. Bitkoin to'lov tizimi. Sanoat 4.0 komponentlari. Raqamli iqtisodiyotda sanoatning o'zgarishi. Raqamli iqtisodiyotda Sanoat-4.0. Mashinani o'rganish (ML) va qurilish sohasi. Sanoatda avtomatlashtirish va virtual reallik. Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot. Kiber-fizik tizimlar, PLM texnologiyalari, 3-D printerlar va dronlar. "Aqlli" ishlab chiqarishlar. Yetakchi davlatlarda 4.0 industriyaning rivojlanishi va uning Respublikada rivojlanish istiqbolari.

18-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda bank va moliyaviy texnologiyalar

Raqamli iqtisodiyotda bank tizimini barqaror rivojlantirish modellari. Moliyaviy xizmatlarni (Fintech) raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish. Raqamli biznesni moliyalashtirish usullari. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalar bozorining xususiyatlari. Internet-banking. Blokcheyn texnologiyalari va moliyaviy xizmatlar transformatsiyasi. Elektron tijoratda korxonalarining biznes-modellari. Moliyaviy xizmatlarni (Fintech) raqamlashtirish jarayonini amalga oshirish. Elektron tijoratda raqamli bank faoliyati. Elektron tijoratda moliyaviy xizmatlarning

raqamli transformatsiyasi. Raqamli iqtisodiyotda kriptovalyutalar va ularni paydo bo'lish tarixi. Kriptovalyuta turlari, qo'llanilishi va O'zbekistonda kriptovalyutani ishlatish jarayoni. Blokcheyn elektron tijorat xavfsizligini ta'minlash. Zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha bank sohasini rivojlantirish istiqbolari. Sug'urta bozorini raqamlashtirish.

19-mavzu. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning

ustuvor yo'nalishlari va vazifalari

O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishi. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekistonda va jahonda elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalari. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga bo'lgan zaruriyati. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni taraqqiyot strategiyasiga mos rivojlantirish yo'nalishlari. Respublikada raqamli iqtisodiyotni taraqqiyot e'tirishning eng muhim vazifalari. Raqamli texnologiyalar asosida tarmoqlar xavfsizligini ta'minlash masalalari. Raqamli texnologiyalar asosida faol iqtisodiyotni shakllantirish va korruptsiyaga qarshi kurash masalalari.

20-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda xavfsizlik masalalari

Raqamli xavfsizlik masalalari va uning ta'minlanishi. Internet tarmog'idagi firibgarlik turlari va ularni aniqlash yo'llari. Intellektual mulk ob'ektlarini himoya qilish tizimi. Raqamli iqtisodiyotda ichki va tashqi biznes muhitining o'zgarishi. Raqamlashtirish va internetdan kelib chiqadigan tahdidlar. Raqamli qaroqchilik. Maxfiylik iqtisodiyoti. Axborot xavfsizligi. Kiberxavfsizlik. Elektron tijorat xavfsizligini ta'minlashda kriptografiya. Ma'lumotlarning elektron himoyasini amalga oshirish. Elektron tijoratda elektron imzodan foydalanish. Elektron tijoratdagi iqtisodiy firibgarliklar. Yetakchi mamlakatlarda elektron tijoratdagi firibgarliklardan himoyalash usullari. O'zbekistonda raqamli xavfsizlik qonunlari va amalga oshirilgan islohotlar.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA

TAVSIYALAR (Amaliyot mashg'ulotlari)

- 1-mavzu. Raqamli iqtisodiyot faniga kirish va uning tarkibiy qismlari
- 2-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda elektron biznes asoslari
- 3-mavzu. Raqamli (elektron tijorat) savdoni rivojlantirish xususiyatlari
- 4-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda buhtli texnologiyalari (Cloud technologies) va "BigData" texnologiyasi
- 5-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari
- 6-mavzu. Iqtisodiyotda kriptovalyuta texnologiyasi va mayning fermalarining ahamiyati
- 7-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda mobil internet texnologiyalari
- 8-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda neyrotehnologiyalar va sun'iy intellekt
- 9-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda buyumlar interneti va kognitiv texnologiyalar
- 10-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalari
- 11-mavzu. Raqamli biznesda kraudsorsing va kraudfandining yangi imkoniyatlari
- 12-mavzu. Raqamli biznesda fikrlash dizayni

21. Sun'iy intellekt – iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish omili sifatida	
22. Sun'iy intellektning rivojlanishi: ijobiy va salbiy jihatlari	
23. Biznes jarayonlarini boshqarishda fikrlash – dizaynning xususiyatlari	
24. Virtual va to'ldirilgan reallik texnologiyalarining mohiyati	
25. AR/VR texnologiyalarni rivojlantirish muammolari va jahon bozori xususiyatlari	
26. Elektron tijoratda buy-side hamda sell-side tizimi	
27. CRM – texnologiyalarning qo'llanilishi va xususiyatlari	
28. Zamonaviy kompaniyalar biznes modelida kraudsorsing va kraudfunding texnologiyalarining xususiyatlari	
29. E-tijorat modelini tuzish xususiyatlari (B2B, B2C, B2G, C2C va boshqalar)	
30. O'zbekiston 2030 yilgacha BMTning Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi va Butunjahon bankining Tadbirdorlikni yuritish indeksidagi o'rni – BMT'ning AKTdan foydalanish samaradorligini baholaydigan indeksi (E-Participation Index)	
31. Elektron ta'lim bozorining rivojlanishi va ta'lim platformalari	
32. O'zbekistonda elektron ta'limni rivojlantirish yo'nalishlari	
33. Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. Sanoat 4.0 konsepsiyasi	
34. Raqamli marketingni rivojlantirish va kelajagi	
35. Blokcheyn texnologiyalarining afzalliklari va kamchiliklari	
36. O'zbekistonda "Aqlli shahar konsepsiyasi"ning rivojlanishi	
37. Aqlli shaharlar va ularning reytinglari	
38. Raqamli xavfsizlik masalalari va uni ta'minlash yo'llari	
39. Rivojlangan mamlakatlarda elektron biznesning holati tahlili	
40. Elektron hukumat. Korxona va tashkilotlarda elektron xizmatlar ko'rsatishning afzalliklari va salbiy tomonlari	
41. Raqamli xizmatlar sifatini ta'minlashda xalqaro standart talablari (E-SQI)	
42. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishini baholash	
43. Raqamli demokratiya	
44. Mobil to'lovlar va mobil banking	
45. Raqamli analitika: mohiyati va muhim jihatlari	
Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.	
3. V. FAN BO'YICHA KURS ISHI (LOYIHASI)	
Raqamli iqtisodiyot fanidan kurs ishi rejalashtirilmagan	
4. VI. Ta'lim natijalari/Kasbiy kompetensiyalari	
Fanni o'zlashtirish natijasida talaba quyidagilarni bajara olishi lozim:	
• asosiy raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos shakllari va turlarini ilmiy tadqiq qilishning asosiy tamoyillari; institutsional va meyoriy huquqiy xususiyatlarini hisobga olgan holda vaziyatni to'g'ri baholash va modelashga olish;	
• O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-uslubiy asoslari haqida tasavvurga ega bo'lishi;	
• raqamli transformatsiyaning salbiy va ijobiy omillarini aniqlash va ulardan samarali foydalanish;	

13-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirish masalalari	
14-mavzu. O'zbekistonda elektron hukumat xususiyatlari	
15-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasi	
16-mavzu. Raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish	
17-mavzu. Sanoatda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish. "Sanoat-4.0" konsepsiyasi	
18-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda bank va moliyaviy texnologiyalar	
19-mavzu. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va vazifalari	
20-mavzu. Raqamli iqtisodiyotda xavfsizlik masalalari	
Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruha bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogic va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.	
IV. MUSTAQIL TA'LIM	
Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:	
1. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasi	
2. O'zbekistonda axborot-texnologiyalarini rivojlantirishning iqtisodiy-huquqiy asoslari	
3. Innovatsion g'oyalar, yuqori texnologiyalarni ishlab chiqarishga, jamiyat hayotiga izchil tatbiq etish	
4. Raqamli iqtisodiyotning xususiyatlari va xorijiy davlatlarda raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi	
5. Raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni baholash	
6. Elektron biznesning mohiyati va rivojlanish xususiyatlari	
7. M2M texnologiyasi – Internet ashyolari asosi sifatida	
8. Raqamli iqtisodiyotning ekotizimi	
9. Elektron tijorat (e-commerce) va elektron savdo (e-trade) xususiy belgilari va farqlari	
10. Mobil tijorat (m-commerce)	
11. Raqamli iqtisodiyotning biznesga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-xatarlar	
12. Virtual olam, "nozik mijoz", bulutli texnologiyalar xususiyatlari	
13. Raqamli iqtisodiyot indikatorlari va ularning xususiyatlari	
14. Katta ma'lumotlar (Big Data) va analitika, ma'lumotlar bazasini tashkil qilish mexanizmi	
15. Raqamli iqtisodiyotda mobil texnologiyalar	
16. O'zbekiston bozoriga mobil qurilmalarning kirib kelish va rivojlanish bosqichlari	
17. Korporativ tarmoqqa mobil texnologiyalarning kirib kelish xususiyatlari	
18. Sun'iy intellekt bilan smart-media vositalari o'rtasidagi bog'liqlik	
19. Nezyotarmoq – medicina, psixologiya, neyrofiziologiya, injeneriya bilan bog'liqligi	
20. Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish – intellektual interfeys, murakkab, qiyin formalashuvchi masalalarni yechish	

	<ul style="list-style-type: none"> • raqamli iqtisodiyot sharoitida mahsulot ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirish orqali korxonaga kirib keladigan pul oqimini ko'paytirish va turli korruption xolatlarini oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish; • raqamli texnologiyalarni mohiyatini chuqur o'rganish va ulardan foydalanish asosida tarmoqlar xavfsizligini ta'minlash masalalari bo'yicha xulosa chiqarish; • raqamli texnologiyalarning paydo bo'lish sabablari. Sanoat inqiloblari xaqida tushunchaga ega bo'lish; • raqamli iqtisodiyotda buyumlar internetning zaruriyati va mohiyati. Internet infratuzilmasi. • raqamli iqtisodiyotda taqsimlangan hisoblash va bulutli texnologiyalarining soha va tarmoqlarning rivojlanish xolatini tahlil qilish; • raqamli iqtisodiyotda katta xajmli ma'lumotlar va to'ldirilgan/virtual reallik texnologiyalaridan foydalanish; • blokcheyn texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlarini o'rganish; • sun'iy texnologiyalaridan foydalanish yo'nalishlarini tahlil qilish. • qishloq xo'jaligi, servis va turizm, transport, logistika soxalarini raqamlashtirish bo'yicha amaliy bilimlarga ega bo'lish; • raqamli iqtisodiyotda iqtisodiy xavfsizlik va kibrxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish. <p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • esse, tezis va maqolalar yozish; • interfaol keys-stadialar yechish; • jarayonli-yo'natirilgan ta'lim; • muhokama ishtirok etish; • seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • mustaqil ishlarni bajarish; • taqdimot tayyorlash; • turli darajadagi testlarni echish; • so'rov o'tkazish. <p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ismni topshirish va eng muhimi mustaqil ish sifatida berilgan topshiriqlarni bajarish.</p>
4.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Маркова В.Д. Цифровая экономика: Учебник для вузов (Высшее образование: бакалавриат). –М: Инфра-М, 2019. –186 с.р. 2. Brynjolfsson E. and KahinB. (editors), Understanding the Digital Economy. The MIT Press, Cambridge, Massachusetts, and London, England, 2018, – 408 p. 3. Ayupov R.H., Boltaboeva G.R. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. T.: TMI,
5.	
6.	

2020, 575 bet.

4. Mirzaev K.J., Boboqulov S.B., Janzakov B.K. Raqamli iqtisodiyot. /O'quv qo'llanma/ Samarqand: SamISI, "STAP-SEL" MChJ. Nashriyot-matbaa bo'limi, - 2022 y. 288 bet.

5. Porsaev G'.M., Safarov B.Sh., Usmanova D.Q. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. Samarqand: SamDU nashri, 2020.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T.: O'zbekiston, 2023.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Raqamli O'zbekiston - 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. Toshkent sh. 2020-yil 5-oktabr. www.lex.uz

7. Gulyamov S.S., Ayupov R.H. Raqamli iqtisodiyot va elektron tijorat asoslari. T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2020, 510 bet.

8. Abdullaev O.M., Fattaxov A.A., Axmedov K. Raqamli iqtisodiyot. T.: "LESSON PRESS, nashriyoti 2020 yil - 686 bet

Internet saytlari

10. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.

11. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

12. www.mail.tdiiu.uz – TDIU elektron kutubxonasi

13. www.el.tfi.uz –TMI elektron kutubxonasi

14. www.stat.uz.

15. www.ziyounet.uz.

16. www.sics.uz

7. Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, O'quv-uslubiy kengashining 2024 yil -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.

8. **Fan/modul uchun mas'ullar:**

Boboqulov S.B. – SamISI, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori.

9. **Taqrizchilar:**

Bakayev Z.T. – SamDU, Inson resurslarini boshqarish va mahalla taraqqiyoti instituti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, dotsent v/b, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (tashqi).

Xalimov Sh.X. - "Everest Super Star" OK rahbari (tashqi).